

ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA VULGARIZM VA
VARVARIZMLARNING O'ZIGA XOS O'RNI

Xaydarova Mohlaroyim Ulug'bek qizi

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o'quvchisi

Xaitov Xusniddin Xasanovich

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning hikoyalarida vulgarizm va varvarizmlarni tahlil qilingan. Ulardan foydalanish orqali obrazlar xarakterini ochishda ijodkor uslubi va mahorati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Varvarizm, vulgarizm, nutqning sofligi, xarakter, obraz, qo'pol so'zlar.

THE METHOD OF WORD-FORMING ADDITIONS IN THE WORKS OF UTKIR
KHOSHIMOV

AbstractI: In this article, we will analyze vulgarism and barbarism in the stories of Abdulla Qahhor. By using them, we talk about the artist's style and skill in revealing the character of the characters

Key words: Barbarism, vulgarism, purity of speech, character, image, rude words.

**СПОСОБ СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ДОПОЛНЕНИЙ В
ПРОИЗВЕДЕНИЯХ УТКИРА ХОШИМОВА**

Аннотация: В этой статье мы проанализируем вульгарилизм и варварство в рассказах Абдуллы Каххора. С их помощью мы говорим о стиле художника и умении раскрыть характер героев.

Ключевые слова: варваризмы, вулгаризмы, чистота речи, характер, образ, грубые слова.

Nutqimizda shunday so'zlar borki, ular nutqning buzilishiga va sofligining yo'qolishiga olib keladi. Bular vulgarizm, varvarizm, shevaga xos so'zlar va parazit so'zlardir. Ammo badiiy asarlarda yozuvchilarimiz ushbu so'zlardan qahramonlarning xarakterini ochib berishda foydalanadi. O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor ham o'z hikoyalarida nutqni buzuvchi so'zlardan obrazlarni yaratishda o'rinali foydalangan.

Vulgarizmlar – nutqning buzilishiga olib keluvchi qo'pol so'zlar. Misol uchun oqpadar, axmoq, yer yutkur, qiztaloq kabilar.

Professor B.O'RINBOYEV vugarimlarni 3 guruxga bo'ladi:

1) Kishilarning xarakteri va mijozidagi ojizlikni ifodolovchi vulgarizmlar: dum, tekinkxo'r, ayyor xumpar, noinsof kabilar. Bunday so'z va iboralarda so'zlovchining tinglovchiga salbiy munosabati, ichki hayajoni, nafrati, jirkanish kuchli ifodasini topgan.

2) Kishining tashqi kamchiligini ko'rsatuvchi vulgarizmlar: ko'ppak, maymoq, ilonbosh, simyog'och, qovoqbosh. Bunday vulgar so'z va iboralar biror predmet nomiga nisbat berish, yaqinlashtirish, o'xshatish natijasida paydo bo'ladi.

3) So'kish, koyish ma'nosini ifodalovchi vulgarizmlar: yaramas, ablax, xumpar, nomard, badbaxt kabilar. Bunday so'z va iboralarda suhbattoshning ichki hayajoni, ruhiy xolati, g'azabi kuchli ifodalangan bo'ladi[1,79].

Iste'dodli yozuvchi Abdulla Qahhor o'z hikoyalarida vulgarizmlardan qahramon harakterini yoritishda va uning asardagi o'rnni kitobxonga yaqqol yetqazib berishda foydalangan. “Anor” hikoyalar to'plamida ham qahramonlar tilidan juda ko'p vulgarizmga oid so'zlarni uchratishimiz mumkin:

“- Kitobda bor! Shahmatni ko'proq o'yna itvachcha!”[2,102] Ushbu jumla Qutbiddinov tomonidan qo'llanilgan va asarda uning qo'pol, o'jar, bolasiga nisbatan bemehrligini ko'rsatib bergen.

“Vay, men nega borar ekanman! Azasiga aytsa, chopqillab boraman. Hu to'yidan tobuti chiqsin!”[2,79] Ushbu jumla “Yoshlar qahvaxonasi” hikoyasida Marg'uba tomonidan qo'llanilgan bo'lib, yozuvchi qahramonning g'azabini, jig'ibironi chiqqanini vulgarizmlar orqali kitobxonga tushunarli tarzda yetqazib berishga harakat qilgan.

Axir, seni bola chaqangdan ayirgan-ku. Shu qurib ketgurlar edi, uni otaman degan kishining nega qo'lidan tutasan! Xat o'qiyotibdi emish-a! Bola chaqasi bilan qo'shmazor bo'lmaydimi! [2,117] Ushbu jumlada Asrorqulning xotini nemislarga bo'lgan nafratini qarg'ish so'zlar orqali kitobxonga yaqqol ifodalab bergen. O'sha paytda uning o'g'li Yodgor xam urushda nemislarga qarshi kurashayotgan edi.

Bu so'zlar qarg'ish so'zlar bo'lib, qahramonning o'zga shaxsga bo'lgan salbiy munosabatini bildirishda foydalanilgan. Asarda qahramonning g'azabini, alamini qahrini ifodalashda qo'llanilgan.

“Varvarizm yunoncha so'z bo'lib, ona tiliga o'zlashmagan va o'zga til hodisasi sifatida qo'llangan so'z yoki ibora. Varvarizmlardan, odatda o'zga yerga xos rasm-odatlarni tasvirlashda, mahaliy koloritni yaratishda foydalaniladi: Ich madam, potom gulyatga boramiz.”[3,27]

“M. Yo'ldoshev varvarizmlar haqida shunday deydi “Badiiy asarda qo'llanilgan har qanday ajnabiy so'z yoki iborani varvarizm deb qarash to'g'ri bo'lmaydi. Masalan, “Kecha va Kunduz” romanida shafe, kasrul-adad, itob kabi ko'plab arabcha, sarzanish, xonahoq, gulbun kabi forscha so'zlar ishlatilgan. Ammo ularni varvarizm deb qarash mumkin emas.”[4, 112]

Bunda kelib chiqadiki, M. Yo'ldoshev varvarizmlarni boshqa so'zlardan ajratish kerakligini ta'kidlagan.

Abdulla Qahhor “Anor” hikoyalar to'plamida varvarizmlardan o'rinli foydalangan. Masalan:

“Qutbiddinov qadahlarni yana to'ldirdi vilka bilan iyagini qashlab davom etdi.”[98,2] Ushbu gapda vilka so'zi rus tilidan kirib kelgan bo'lib, o'zbek tilida sanchiqi deb ataladi. Yozuvchi davrni va muhitni tasvirlashda varvarizmdan foydalangan.

“Munozara va mulohazalardan keyin zvenoga boshliq qilib yetmish bir yashar To’xtabuvi Sarimsoqova saylandi.” [2,128] Ushbu jumla muallif tmonidan aytilgan bolib zveno kichik bo’linma ma’nosini ifodalab kelyapti.

“Hmm... Auff, zarda bo’libman!” [2,216] “ Praktikum, minimum, maksimum, bular hammasi lotinchaga yoki lotinchaga yaqin so’zlar.” [2,219] Berilgan jumlada varvarzim “Auff” so’zi bo’lib, nutqni buzuvchi omillardan biri. Yozuvchi kitobxonga o’sha davr muhitini ochib berishda varvarizmlardan foydalangan.

Bunday varvarizmlar yozuvchining ko’plab hikoyalarida uchraydi. Shuningdek ular qahramonning nutqi qanchalar buzilayotganini ko’rsatib beradi. Varvarizmlar o’zga yerga xos odatni tasvirlashda va muhitni yaratishda foydalaniladi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, yozuvchi vulgarizm va varvarizmlardan foydalanishni targ’ib qilishni emas, balki nutqda foydalanilsa qanchalik dag’al va qo’pol ko’rinishini hikoyalarida yaqqol ifoda etgan va ular qahramonning ichki dunyosini va ma’daniy-ma’rifiy saviyasini ochib berishda alohida o’rin tutishini kitobxonga yetkazib bergen. Shuni ta’kidlab o’tish joizki, vulgarizm va varvarizmlardan foydalanish nutq madaniyatiga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O’rinboyev.B. Hozirgi o’zbek tilida vokativ gap kategoriysi. Toshkent;1972. B: 79 b.
2. M.Yo’ldoshev. Badiiy matn lingvopoetikasi. Toshkent; Sharq; 2005-yil. B: 112 b.
3. Abdulla Qahhor. Anor.[Matn].Qissa va hikoyalar: Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2019.- 240 b. B: 102.79.117. 128. 216. 219.
4. Azim. Xo’jayev. Tilshunoslik lug’atlarining izohli lug’ati.Toshkent “O’zbekiston Milliy Ensklopediyasi “ Davlat Ilmiy nashriyoti.-158 b. B:27b.